

JADID SHE'RIYATIDA POETIK OBRAZLARNING IJTIMOIYLASHUVI CHO'L PON ,FITRAT SHE'RIYATI MISOLIDA

Xudoyberdiyeva Madina Shuhratovna

Termiz davlat pedagogika institute

Annotatsiya. Mazkur ishda XX asr boshlaridagi o'zbek adabiyotida yangi bosqichni boshlab bergan jadid adabiyotining yirik vakillari Cho'lpon va Fitrat she'riyatida poetik obrazlarning ijtimoiy mazmun bilan boyishi, jamiyat muammolari bilan chambarchas bog'lanishi tahlil etilgan. Jadidlar poetikasida an'anaviy timsollar yangi ijtimoiy-estetik ma'no kasb etgani, shoirlar obrazlar orqali xalqning ozodlikka, ma'rifatga, adolatga intilishlarini ifoda etgani ko'rsatib berilgan. Ishda Cho'lponning "Uyg'on", "Ko'r ung'on" kabi she'rlari hamda Fitratning "Tanqidiy nazar", "Ilm yo'li" singari asarlari tahlili asosida poetik obrazlarning zamonaviy tafakkur bilan uyg'unlashuvi yoritilgan. Shuningdek, poetik timsollar – Vatan, xalq, zulmat, nur, ko'z, yurak kabi obrazlar orqali ijtimoiy fikrning shakllanishi va kengayish jarayoni o'rganilgan. Ish adabiy tahlil va ijtimoiy kontekst asosida olib borilib, o'zbek she'riyatining ijtimoiy-falsafiy yuksalishida Cho'lpon va Fitrat ijodining o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: Jadid, Cho'lpon, Fitrat, poetic, ijtimoiy-falsafiy, obraz, she'riyat, janr, ma'rifat, ifoda, obrazlilik, ramz, o'ziga xoslik, She'riy asar, adabiy janr, tuyg'u va kechinma, lirik qahramon.

Annotation. This paper explores the socialization of poetic imagery in early 20th-century Uzbek Jadid literature, focusing on the poetry of Cho'lpon and Fitrat. It analyzes how traditional poetic symbols were imbued with new socio-aesthetic meanings and how both poets used imagery to express the people's aspirations for freedom, enlightenment, and justice. Through close readings of Cho'lpon's poems such as "Uyg'on" ("Awaken") and "Ko'r ung'on" ("The Blind Awakened"), as well as Fitrat's works like "Tanqidiy nazar" ("A Critical View") and "Ilm yo'li" ("The Path of Knowledge"), the paper highlights the transformation of poetic forms in connection with contemporary social consciousness. Key symbols such as homeland, people, darkness, light, eyes, and heart are examined as carriers of social meaning. This research demonstrates how Jadid poetry became a vehicle for socio-political reflection, emphasizing the significant role of Cho'lpon and Fitrat in elevating the philosophical and civic depth of Uzbek poetry.

Keywords: Jadid, Cholpon, Fitrat, poetic, socio-philosophical, image, poetry, genre, enlightenment, expression, imagery, symbol, originality, poetic work, literary genre, feeling and experience, lyrical hero.

Istiqloq yillarida xalqimizning ma'naviy yuksalish yo'lidagi imkoniyatlarini kengaytirish, XX asr boshlarida yashab o'tgan ma'rifatparvar ijodkorlar adabiy merosini holisona o'rganishga e'tibor kuchaytirildi. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoevning: “Ulug' ajdodlarimizning aql-zakovati va badiiy dahosi bilan yaratilgan noyob asarlar, xususan, matematika, mineralogiya, astronomiya, kimyo, tibbiyot, farmatsevtika, me'morlik, tarix, adabiyot, san'at, ilohiyot, falsafa va boshqa sohalarga oid manbalar nafaqat bizning xalqimiz, balki, jahon ahlining bebaho boyligi hisoblanadi”¹. Abdulhamid Cho'lpon, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy singari shoirlar ijodida peyzaj bilan bog'liq poetik obrazlar o'ziga xos tarzda qo'llanilgan. Ular she'rlarida bu poetik obrazlarning yangilanishi ko'zga tashlanadi.

Adabiyotshunos N.Afoqova aytganidek: “Jadid adabiyoti - an'ana va yangilik kesishgan chorrahada maydonga kelgan adabiyotdir... Ammo eskilik va yangilik aynan jadid adiblari ijodida – she'riyatda ro'baro' keldi” [Afoqova N. 2006, 9]. Buni biz poetik obrazlar misolida yanada aniqroq tasavvur qilishimiz mumkin.

Ta'kidlash joizki, mazkur davrda Turkiston milliy-taraqqiyparvarlik harakati – jadidchilikning muhim markaziga aylangan edi. Jadidlar turli mamlakatlardagi taraqqiyot va islohotlar uchun olib borilgan harakatlarning tajribasini milliy asosda qayta ishlashga intildi. Mustamlakachilikka qarshi kurashning bosh g'oyasi juda murakkab sharoitda shakllanib yetildi. Davrning ilg'or namoyandalari bo'lgan jadidlar ana shunday murakkab va qiyin sharoitlarda ham ezgu maqsadlaridan bir qadam ortga chekinmay ma'rifat tarqatish, ta'lim-tarbiya sohasini isloh etishga jiddi jahd qildilar. Chunki ular faqat ta'lim-tarbiya, ilm-ma'rifat bilangina ozodlikka, taraqqiyotga erishish mumkinligini yaxshi anglaganlar. Hurlikka erishmagan xalq esa taraqqiyotdan ham begona bo'ladi. “Kamolotning yagona omili o'z aqliga, o'z mulkiga, o'z mehnatiga egalikdir”, degan edi yirik jadidshunos olim Begali Qosimov “Mustaqillik o'zlikni tanimoqdir” nomli maqolasida. Akademik Naim Karimov jadidlarining bu olijanob tashabbus va harakatlari haqida shunday degan edi: “Bu voqea, garchi o'sha davrda kutilgan natijani bermagan bo'lsa-da, yetmish nafar o'zbekistonlik talabaning Germaniyadagi o'rta va oliy o'quv yurtlarida ta'lim olishi o'z davrida qanday katta aks sado bergan bo'lsa, hozir ham o'zbek jamiyatini shunchalik haya-jonlantirib keladi”.

Lekin afsuski, millat ziyolilari, jadidlar va butun xalq umidi bo'lgan bu talabalar taqdiri sovet davlati va mustabid tuzum tufayli fojiali yakun topti. Butun millat orzusi va ezgu maqsadlari uchun vatanlariga qaytgan, qator sohalarning rivoji yo'lida xizmat qilishni boshlagan sobiq talabalar qirib tashlandi. Omon qolganlari esa o'zga mamlakatlar taraqqiyotiga hissa qo'shdilar².

¹ Yoqubova Sevinchoy, Jadid she'riyatida peyzaj bilan bog'liq poetik obrazlar tasviri,

² D.H. Nabyev, Fidoyi ma'rifatparvarlar faoliyati – ilmiy tadqiqotlar ko'zgusida, To'plam, 2023-yil “Nasaf” NMIU, 2023-yil

Professor Begali Qosimov shoir va dramaturg Ibrohim Davronning “Adabiyotimiz va shoirlarimiz” (TVG, 1909, 47-son.) nomli maqolasini yangi estetik qarashlar nuqtai nazaridan tekshirar ekan, shunday xulosaga keladi: “Muallif (I. Davron – U. J.) shoirning ijtimoiy tushunchasini, davr ehtiyojlarini his etish va qondira olish darajasini iqtidor mezoni qilib olmoqda” [21, 92-b]. Shunga yaqin qarashni biz Hoji Mu’inda ham uchramiz: Professor Begali Qosimov shoir va dramaturg Ibrohim Davronning “Adabiyotimiz va shoirlarimiz” (TVG, 1909, 47-son.) nomli maqolasini yangi estetik qarashlar nuqtai nazaridan tekshirar ekan, shunday xulosaga keladi: “Muallif (I. Davron – U. J.) shoirning ijtimoiy tushunchasini, davr ehtiyojlarini his etish va qondira olish darajasini iqtidor mezoni qilib olmoqda”³.

Guftan az she’r naguftan a’lo,

Maqsud az she’r biboshad ma’no...

(Ya’ni she’r aytishdan maqsad, mazmun-ma’no bo’lmas ekan, uning aytilganidan aytilmagani yaxshi.) [21b]. Cho’lponning “Adabiyot nadir?” deb nomlangan maqolasida:

“Adabiyoti o’lmag’on va adabiyotining taraqqiysig’a chalishmag’on va adiblar yetishtirmag’on millat oxiri bir kun hissiyotdan, o’yan, fikrdan mahrum o’lub, sekin-sekin inqiroz bo’lur”, degan jummalarni o’qiyamiz.

Ko’rinadiki, mavjud estetik qarashlardan qoniqmaslik (Ahmad Tabibiy) badiiy asarda davr muammolarini ko’rish istagi (I.Davron), badiiy asar qimmatini yangi mazmunda deb bilish (H.Mu’in), adabiyot ravnaqini jamiyat, millat taraqqiyoti bilan bir butunlikda talqin etish (Cho’lpon) yangi estetikaning ilk bosqichi uchun xos xususiyat bo’lgan. Qisqa fursatda bunday qarashlar estetik bahs tusini oldi. Matbuot bahs maydoniga aylandi⁴.

Ushbu fikrlarga shuni ilova qilish mumkinki, 10 yillarda Avloniyga zamondosh boshqa adiblar ijodida ham bu yo’lda ma’lum urinishlar bo’lgan. Masalan, Cho’lpon o’zining badiiy adabiyot haqidagi fikrlari tajassum topgan maqolalaridan birini “Adabiyot nadir?” deb nomlangan. Demak, adabiyot istilohini maxsus tor ma’noda qo’llagan. Ashurali Zohiriy “Ona tili” nomli maqolasida (“Sadoyi Farg’ona”. 1914, 13 aprel) “... kitob, risola, gazeta, jurnal va boshqalarga bir so’z bilan “adabiyot (litrotur) deyiladi”, deb yozadi. Bu bilan istilohning tor va keng ma’nolarini bir butunlikda talqin etadi. Fitrat “She’r va shoirliq” maqolasida “...adabiyotdagi eng katta hunarimiz bo’lg’on taqlidchilikdan turk she’rining boshini saqlamoq lozim”, deb yozganida, shubhasiz, adabiyot istilohini maxsus ma’nosida qo’llagan [16]. Demak, 20-yillarda

³ Uzoq Jo’raqulov, Jadid estetikasining shakllanishi, To’plam, 2023-yil “Nasaf” NMIU, 2023-yil

⁴ Uzoq Jo’raqulov, Jadid estetikasining shakllanishi, To’plam, 2023-yil “Nasaf” NMIU, 2023-yil

tom ma'noda adabiyotning tor lug'aviy ma'nosi belgilandi deyishimiz uchun yetarli asoslar bor⁵.

Umuman, yangi milliy estetikaning shakllanishi, an'anaviy estetika va jadid adabiyoti poetikasiga doir nazariy tamoyillarni belgilash yo'lidagi jiddiy harakatlar o'tgan asrning 10- yillaridan boshlanib 20-yillarning oxiriga qadar izchil va qizg'in davom etdi. Milliy ziyolilar, adabiyotshunoslar, ijodkorlarning birortasi bu dolzarb muammoga befarq qaramadilar. Adabiyot taraqqiyotining milliy ma'naviyat rivoji, yangi adabiyot tashakkuli uchun muhim ekaniga urg'u berdilar⁶.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Cho'lpon. *Tanlangan asarlar*. 2 jildlik. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2011.
2. Fitrat A. *Saylanma*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1990.
3. Shukurov N. *Jadidchilik va o'zbek adabiyoti*. – Toshkent: Fan, 1994.
4. Usmonov M. *O'zbek she'riyati taraqqiyoti tarixidan*. – Toshkent: Fan, 1974.
5. Yo'ldoshev S. *Cho'lpon poetikasi*. – Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2003.
6. Sodiqov A. *Fitrat va uning adabiy merosi*. – Toshkent: Fan, 1995.
7. Homidov A. *Jadid adabiyoti va ma'rifatchilik harakati*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2007.
8. Qosimov B. *O'zbek adabiyoti tarixi*. 2-qism. – Toshkent: O'qituvchi, 2009.
9. G'aniyeva H. *Cho'lpon: hayoti va ijodi*. – Toshkent: Fan, 1985.
10. To'xtaboyev M. *Jadidlar merosi va hozirgi davr*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2015.

⁵ Uzoq Jo'raqulov, Jadid estetikasining shakllanishi, To'plam, 2023-yil "Nasaf" NMIU, 2023-yil

⁶ Uzoq Jo'raqulov, Jadid estetikasining shakllanishi, To'plam, 2023-yil "Nasaf" NMIU, 2023-yil